O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGIZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“BUXGALTERIYA HISOBI” KAFEDRASI

“BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT: MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA MUVOFIQLASHTIRISH, RAQAMLASHTIRISH VA TARAQQIY ETTIRISH MASALALARI”

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI TO’PLAMI

(2024 yil 15-may)

SAMARQAND

UO'K: 657.22
T 71
KBK: 65.052

“**Buxgalteriya hisobi va audit: moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiqlashtirish, raqamlashtirish va taraqqiy ettirish masalalari”.** Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. 2024-yil 15-may kuni. Samarqand, SamISI, 2024. 262 – bet.

i.f.d., professor S.N.Tashnazarovning umumiy taxriri ostida

Nashr uchun mas’ullar:
1. **D.X.Aslanova- i.f.f.d., professor**
2. **S.N.Tashnazarov – i.f.d., professor**
3. **D.J.Pashaxadjayeva – PhD, dosent**

To’plovchi va nashrga tayyorlovchi: G.Djumayeva – Assistent
Sahifalovchi: G. Djumayeva

An’anaviy ilmiy-amaliy konferensiya materiallarida yangi O’zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (MHXS) jadal joriy qilish va tashkil etish, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida korxonalarda aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, daromadlar va xarajatlarni tan olish va baholash hamda moliyaviy hisobotda aks ettirish, auditni xalqaro standartlar asosida tashkil etish va o’tkazishning tashkiliy dastaklari hamda metodologik masalalari, xizmat ko’rsatish tarmoqlari iqtisodiyotini rivojlantirish hamda iqtisodiy tahlil, moliya, sug’urta, soliqqa tortish, investitsiya va bank sohalarini xalqaro standartlar asosida tashkil etish va rivojlantirish masalalari yoritilgan. To’plamda MHXSlariga o’tish borasida erishilgan natijalar tahlil qilinib, biznes sub’ektlarida, jumladan tijorat banklari, sug’urta tashkilotlari va boshqa korxonalarda xalqaro standartlarni muvoffaqiyatli joriy qilish bo’yicha xulosa va takliflar keltirilgan. MHXSlarini joriy qilish bo’yicha metodologik tartiblar hamda MHXS asosida moliyaviy hisobot formatlari, hisob siyosati, schyotlar rejasining tuzish borasidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Maqolalar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar ma’suldir. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to’g’ri kelmasligi mumkin

ISBN: 978-9910-720-22-2

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2024.
© “STEP-SEL” MChJ nashriyoti, 2024.

Ташназарова Д.С. Кенджаева З.М.	Совершенствование учета нематериальных активов	146
Ro'ziboyev Z.T.	Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishning iqtisodiy ahamiyati va ularni to'g'ri hisobga olish zaruriyati	150
Jabbarova Ch.A.	Korxonalarda majburiyatlarni xalqaro standartlar asosida tan olish va baholash	154
Рахмонкулов А.	Хўжалик юртиувчи субъектларда молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш зарурияти ва аҳамияти	158
Эшонқулов А.Қ.	Корхоналарда пул оқими тугрисидаги хисобот шаклини молиявий бухгалтерия жадваллари асосида кўриб чиқиш	161
Икрамова Х.Р.	Преимущества применения системы «стандарт-кост» в управление производственными затратами	166
Умарова Ш.К.	Корхоналар молиявий фаолияти моҳиятининг замонавий талқинлари	170
Ташназарова Д.С. Кудратов Ж.А.	Формирование организационно-методической основе анализа финансовой отчетности по международным стандартам (IFRS) финансовой отчетности	174
Юсупова Ф.	Даромадлар ва харажатлар молиявий натижаларнинг асосий кўрсаткичлари сифатидаги тавсифи	177
Сатторов Т.Т.	Теоретические основы применения лекарственных средств в субъектах отрасли фармацевтики: международные и национальные аспекты	183
Эшонқулов А.Қ.	Корхоналарда пул оқимлари тўғрисидаги ҳисоботни такомиллаштириш	187
Djumayeva G.A.	Ijara hisobining dolzarbligi va unga nazariy asoslarda berilgan ta'riflar	191
II-SHO'BA INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA AUDITNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH VA O'TKAZISHNING TASHKILIY DASTAKLARI HAMDA METODOLOGIK MASALALARI		

4.Маршалл А.Принципы экономической науки. Т.1.и 2. –Изд РОО,1996
5.Милл Дж.Основы политической экономии. Пер с анг.-Т.1-3.-М:Прогресс,1980-1981
6.Рикардо Д.Начало политической экономии и налогового обложения. Том 1. Пер.с.анг.-М.:Госполитиздат,1955

IJARA HISOBINING DOLZARBLIGI VA UNGA NAZARIY ASOSLARDA BERILGAN TA'RIFLAR

Djumayeva G.A.
SamISI, assistent

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi PQ4611-son «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2020 yil 24 avgustdagi 507-son «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga buxgalteriya hisobi ob'yekti bo'lgan aktivlar, xususan uzoq muddatli aktivlar ijarasi tushunchasining iqtisodiy mohiyatini yanada chuqurroq o'rganishni, ular hisobini xalqaro hisob amaliyotidan kelib chiqib takomillashtirishni taqazo etmoqda. Shu bois bugungi kunda eng muhim masalalardan biri bu MHXS(moliyaviy hisobning xalqaro standartlari)larini o'rganish va uni joriy etish hisoblanadi.

Bizning oldimizga xalqaro standartlarni o'rganish, milliy hisob tizimi bilan integrasiyalash masalasi, ta'lim sohasiga to'liq kiritish, xo'jalik yurituvchi tashkilotlarda MHXS talablari asosida hisob siyosatini ishlab chiqish, moliyaviy hisobot shakllarini xalqaro tamoyillarga asosan tayyorlash, shuningdek buxgalteriya hisobi ob'yektlari(uzoq muddatli, joriy aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital) hisobining konseptual asosinini takomillashtirish vazifasi qo'yilmoqda. Bilamizki, yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, yangi bozorlarni rivojlantirish, korxona faoliyatini kengaytirish uzoq muddatli aktivlarga talabni keltirib chiqaradi, shu o'rinda korxonalar oldida ikkita tanlov turadi, birinchisi uzoq muddatli aktivlarni sotib olish va ikkinchisi ularni ijaraga olish.

Fan-texnikaning shiddat bilan rivojlanib borishini hisobga oladigan bo'lsak, uzoq muddatli aktivlarni ijaraga olish korxonalar uchun eng maqbul tanlov bo'ladi. Xususan zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida aktivlar ijarasi bilan bog'liq munosabatlar hajmi ortib bormoqda. Buni quyidagi ko'rsatkichlar orqali ham ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

2023-yil yanvar-aprel oylarida ijara xizmatlari 2 177,3 mlrd. so‘mga yetib, jami ko‘rsatilgan xizmatlar hajmida ularning ulushi 1,6 % ni tashkil etdi. O‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 103,9 % ni tashkil etgan. Ushbu xizmat turi bo‘yicha yuqori o‘sish sur’atlari Toshkent shahri (115,4 %) va Samarqand (109,8

%) viloyatida kuzatilgan. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 3,9 % ga oshgan.[104]



1-rasm. “E-IJARA” axborot tizimi orqali soliq organlarida hisobga qo’yilgan ko’chmas mulk ijara shartnomalari(2024-yil 1-yanvar holatiga).[105]

2024-yil 1-yanvar holatiga soliq organlarida 531 757 ta ko‘chmas mulk ijara shartnomasi hisobga qo‘yilgan. Ko’chmas mulk ob’yektlari soni 300 876 ta, bu bilan bog’liq ijara summasi 8 661,9 mlrd so’mni tashkil etgan. Yuridik shaxslar o‘rtasida tuzilgan 144,9 mingdan ortiq ijara shartnomasi asosida 561,6 mlrd so‘m soliq hisoblanib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan ijara shartnomalari soni 30,2% va hisoblangan soliq summasi 31,2 %ga oshgan. Jismoniy shaxslar o‘rtasida tuzilgan 386,8 mingta ijara shartnomasi asosida 194,8 mlrd so‘m daromad solig‘i hisoblanib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan ijara shartnomalari soni 60,5 % va hisoblangan daromad solig‘i summasi 21 %ga oshgan.

Ma’lumotlardan ko’rinib turibdiki, ijara munosabatlari nafaqat buxgalteriya hisobi ob’yekti, balki soliq hisobining ham ob’yekti hisoblanadi. Demak,

---

104 https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/40692-ijar-a-xizmatlari-2

105 https://t.me/fiskaltahlil

korxonalarda ijara hisobini to’g’ri yuritish, xalqaro standartlar asosida takomillashtirish buxgalteriya hisobining muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Turli axborot manbalari, adabiyotlar va me’yoriy-huquqiy hujjatlarda ijaraga quyidagicha ta’riflar berilgan:

Ijara (arab. - ijora) tarixiy-etnografik atama bo’lib, uning ikki ko’rinishi e’tirof etilgan:

1) Islom dini tarqalgan davlatlarda yer egalari tomonidan yerni ishlash uchun dehqonlarga berish shartlaridan biri bo’lib, yer egasining haqini pul bilan to‘langan. Yer egasi haqi hosildan ulush (natura tarzida) beriladigan bo‘lsa muzora’a deb atalgan. 20-asrning 20-yillariga qadar O‘rta Osiyoda ham keng tarqalgan bo‘lgan va u korandalik[106] deb yuritilgan.

2) mol-mulkni yollash va undan foydalanish bo‘yicha shartnoma. Unga ko‘ra, bir tomon (ijara beruvchi) ikkinchi tomon (ijara oluvchi)ga ma’lum to‘lov, ya’ni ijara haqi evaziga mol-mulkni vaqtincha foydalanish uchun beradi. Ijara haqi mol-mulkning qiymati va keltiradigan daromadiga bog‘liq bo‘lib, o‘zaro kelishuv bilan belgilanadi.

Ijarachi ayrim jismoniy shaxs, yuridik shaxs va hatto davlat bo‘lishi mumkin. Mehnat jamoalari o‘z korxonalaridan, korxonalar esa bir-biridan ijara shartnomasiga binoan asosiy ishlab chiqarish va noishlab chiqarish vositalarini ma’lum muddatga qonun hujjatlarida taqiqlanmagan faoliyatlarda samarali foydalanish va qo‘shimcha daromadga erishish maqsadida oladi.[107]

Islom huquqshunosligida ijara atamasi ikki xil amaliyot uchun qo'llaniladi. Birinchisi bir kishini xizmat haqi to'lash asosida ishga yollash amaliyotidir. Ish beruvchi mustajir, yollanma ishchi esa ajir deyiladi. Agar A tomon ishxonasiga B tomonni boshqaruvchi yoki oddiy xodim qilib oylik maosh to'lash sharti bilan ishga olsa, A mustajir, B esa Ajir deyiladi. Shuningdek agar A chamadonlarini aeroportga ko'tarib borish uchun yuk tashuvchini yollasa, A mustajir, B esa ajir bo'ladi. Ikkala holatda ham tomonlar o'rtasidagi munosabat ijara muomalasi hisoblanadi. Bu turdagi ijaraga insonlarning xizmatlari yollanishi mumkin bo'lgan barcha ijara kelishuvlari kiradi. Bu xizmatlarga vrach, huquqshunos, o'qituvchi, ishchi yoki boshqa har qanday kasb vakillarining xizmatlari kirishi mumkin. Yollangan xizmatchilar “ajir”, ularni yollagan kishi “mustajir” deyiladi, ularga to'langan haq esa “ujra” deb nomlanadi. Ijaraning ikkinchi turi inson xizmatidan emas, balki aktiv va mulklardan foydalanish holatiga taalluqli. Bunda ijara «muayyan mulkni ijara haqi evaziga boshqa shaxsning foydalanishiga topshirish» amaliyotini bildirib, ingliz tilida qo'llaniladigan «lizing» atamasi bilan bir xil ma`noda ishlatiladi. Bunda lizing beruvchi mujir, lizing oluvchi mustajir va lizing beruvchiga to'lanadigan ijara haqi ujra deb nomlanadi. Ijara qonun-qoidalari lizing sifatida ko'p jihatdan savdo qonun-qoidalariga o'xshab ketadi. Chunki ikki holatda ham muayyan narsa arziydigan haq evaziga boshqa kishiga ko'chadi. Ijara va savdoning asosiy farqi shundaki, savdoda mulkning egaligi xaridorga ko'chadi, ijarada esa mulk egaligi

[106] https://uz.wikipedia.org/wiki/Korandalik
[107] https://uz.wikipedia.org/wiki/Ijara

ijaraga beruvchida qoladi, faqat mulkdan foydalanish huquqi ijara oluvchiga ko'chadi.[108]

Ijara - tovon evaziga muayyan davr mobaynida aktiv(tayanch aktiv)dan foydalanish huquqi beriladigan shartnoma yoki shartnomaning bir qismi.[109]

Ijara - shartnoma asosida yerga, boshqa tabiiy resurslarga, shuningdek xo‘jalik faoliyatini va o‘zga faoliyatni mustaqil ravishda amalga oshirish uchun ijarachiga zarur bo‘lgan mol-mulkka haq evaziga muddatli egalik qilish va undan foydalanishdan iboratdir.[110]

6-son “Ijara hisobi” BHMS nuqtai nazaridan ijara quyidagilarga bo‘linadi:

a) lizing (moliyaviy ijara);

b) uzoq muddatli ijara;

v) qisqa muddatli ijara.

Lizing (moliyaviy ijara) — ijara munosabatlarining alohida turi bo‘lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizingga oluvchining) topshirig‘iga binoan uchinchi tarafdan (sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mol-mulkni (lizing obyektini) mulk qilib sotib oladi va uni shu shartnomada belgilangan shartlarda haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun lizingga oluvchiga o‘n ikki oydan ortiq muddatga beradi.[111]

1-jadval

Ijara va lizingning farqlanishlari[112]

	Ijara	**Lizing**
Ob’yektlari	korxonalar, ayrim ishlab chiqarishlar, sexlar, fermalar, boshqa bo‘linmalar, tashkilotlar; ayrim binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari, inventarlar, asboblar, boshqa moddiy boyliklar; er (qishloq xo‘jaligi uchun ajratilgan yerlar ijaraga faqatgina qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish uchun beriladi) va boshqa tabiiy resurslar	Tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan iste’mol qilinmaydigan har qanday ashyolar, shu jumladan korxonalar, mulkiy komplekslar, binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari hamda boshqa ko‘char va ko‘chmas mulk
Sub’yektlari	Ijaraga beruvchi va ijarachi	Lizing beruvchi, lizing oluvchi va sotuvchi

[108] https://globalhalal.uz/blog/datahub/ijara/?script=lat

[109] 16-son Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti “Ijara”

[110] https://lex.uz/acts/-112328

[111] https://lex.uz/ru/docs/-85259, 6-son BHMS “Ijara hisobi”

[112] https://lex.uz/acts/-112328, https://lex.uz/ru/docs/-85259 ga asosan muallif ishlanamasi

Shakllari (turlari)	Operativ, moliyaviy	Uchta subyekti ishtirok etadigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shaklda ham, lizing oluvchi va sotuvchi bo‘lib bir shaxsning o‘zi ishtirok etadigan qaytariladigan shaklda ham amalga oshirilishi mumkin
Shartnoma tuzish shakli	yozma shaklda, qonunchilikda belgilangan tartibda tuziladi	yozma shaklda, qonunchilikda belgilangan tartibda tuziladi
Shartnoma muddati	1 yilgacha; 1 yildan ortiq	12 oydan ortiq muddatga
To’lovlar	haq to`lash tartibi, shartlari va muddatlari mulk ijarasi shartnomasi bilan belgilanadi	Lizing to‘lovlari shartnomaning butun amal qilish muddatiga taqsimlanadi va bo‘lib-bo‘lib to‘lanadi. Lizing to‘lovlarining miqdorlari va davriyligi lizing shartnomasi bilan belgilanadi
Mulk huquqi	Mol-mulkni ijaraga berish ana shu mol-mulkka egalik qilish huquqining boshqa kishiga o‘tkazilishiga olib kelmaydi	Lizing ob’yektiga bo‘lgan mulk huquqi lizing oluvchi tomonidan sotib olingunga qadar lizing beruvchiga tegishli

Shuningdek, amaliyotda, adabiyotlarda va manbalarda prokat atamasi ham ishlatiladi. Fuqarolik Kodeksiga asosan prokat doimiy tadbirkorlik faoliyati sifatida mol-mulkni ijaraga beruvchi haq evaziga ijaraga oluvchiga vaqtinchalik egalik qilish va foydalanish uchun ko`char mol-mulkni topshirish hisoblanadi.

Yuqorida keltirilganlardan ko’rinib turibdiki, ijara va lizing munosabatlarida ma’lum farqlanishlar mavjud. Ijara hisobini yuritishning asosi bo’lgan 6-son “Ijara hisobi” BHMSda ijaraga berilgan ta’rif lizingga berilgan ta’rif bilan aynan bir xil. Me’yoriy-huquqiy hujjatlarda ijaraga beriladigan yagona ta’rif ishlab chiqilishi lozim.